



AYZEK AZIMOV VA HOJIAKBAR SHAYXOVNING HIKOYA YOZISHDAGI UNIVERSAL VA XUSUSIY JIHATLARI¹

Fayzullayeva Dilfuzaxon G'ulomjon qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

mustaqil izlanuvchi

Toshkent, O'zbekiston

E-mail: dilfuzamahmudova4@gmail.com

ORCID ID: 0009-0008-6838-5169

ANNOTATSIYA	KALIT SO'ZLAR
Ushbu maqola Ayzek Azimov va Hojiakbar Shayxovning hikoyachilik mahorati tahliliga bag'ishlangan. Maqolada ikki yozuvchining ijodiy uslublari o'rtasidagi o'xshash va farqli jihatlar qiyosiy tahlil qilinadi. Ayzek Azimov amerika adabiyotining ilmiy-fantastika janrining yorqin vakili bo'lsa, Hojiakbar Shayxov Ozod Sharaffidinov ta'biri bilan aytilganidek o'zbek adabiyotida ilmiy fantastika janrining qaldirg'ochi hisoblanadi. Ayzek Azimov amerika adabiy doirasida ilmiy fantastikani jadal rivojlanishi, uning yuqori cho'qqiga chiqishiga sababchi bo'lgan bo'lsa, Hojiakbar Shayxov ushbu janrning o'zbek adabiyotida paydo bo'lishiga, shu bilan birgalikda rivojlanishiga ulkan hissa qo'shgan yozuvchidir. Maqolada A. Azimov va H. Shayxov ijodining mavzuviy o'xshash jihatlari, insoniyat, texnologiya va kelajak kabi mavzularini yoritish mahorati, shuningdek, ularning xususiy jihatlari qiyosiy o'rganildi. Tadqiqot metodlari sifatida qiyosiy tahlil, kontekstual tahlil va adabiy matnlarni tahlil qilish usullari qo'llanildi. Maqolaning maqsadi ikki yozuvchi, Ayzek Azimov va Hojiakbar Shayxovlarning ijodi o'rtasida nafaqat umumiyliklar, balki o'ziga xosliklarni hikoyalar tahlili yordamida aniqlashga qaratilgan.	Adabiyot, qiyosiy tahlil, ilmiy-fantastika, milliy an'analar, asar konteksti, tahlil, g'oya, qahramon ruhiyati, yozuvchi mahorati, nasr. Received: August 22, 2024 Accepted: September 15, 2024 Available online: November 15, 2024

Copyright © 2024 by author(s).

This work is licensed under the Creative Commons

Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>

¹ For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):

Fayzullayeva D.G'. Ayzek Azimov va Hojiakbar Shayxovning hikoya yozishdagi universal va xususiy jihatlari. //Komparativistika (Comparative Studies). — 2024. — Vol.1, № 4. — B. 230-239.

УНИВЕРСАЛЬНЫЕ И СПЕЦИФИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ СОЗДАНИЯ РАССКАЗОВ В ТВОРЧЕСТВЕ АЙЗЕКА АЗИМОВА И ХОДЖИАКБАРА ШАЙХОВА

Файзуллаева Дилфузахон Гуломжон кизи

Узбекский государственный университет мировых языков
независимый исследователь

Ташкент, Узбекистан

E-mail: dilfuzamahmudova4@gmail.com

ORCID ID: 0009-0008-6838-5169

АННОТАЦИЯ	КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА
Данная статья посвящена анализу повествовательного мастерства Айзека Азимова и Ходжиакбара Шайхова. В статье проводится сравнительный анализ универсальных и частных аспектов творческих стилей двух писателей. Айзек Азимов является ярким представителем научно-фантастического жанра в американской литературе, в то время как Ходжиакбар Шайхов, по словам Озода Шарафутдинова, считается пионером жанра научной фантастики в узбекской литературе. Айзек Азимов способствовал бурному развитию и подъему научной фантастики в американской литературе, а Ходжиакбар Шайхов внес огромный вклад в появление и развитие этого жанра в узбекской литературе. В статье рассматриваются как сходные аспекты творчества А. Азимова и Х. Шайхова (темы судьбы человечества, технологий и будущего), так и его индивидуальные черты (национальные традиции, социальные проблемы и художественные стили). Между произведениями этих двух писателей существуют значительные различия, и в то же время в них по-своему рассмотрены близкие гуманитарные и социальные проблемы. В качестве методов исследования литературных текстов использованы сравнительный анализ и контекстуальный анализ. Цель статьи заключается в выявлении не только общих черт, но и уникальных особенностей творчества двух писателей, Айзека Азимова и Ходжиакбара Шайхова, через анализ их рассказов.	Литература, сравнительный анализ, научная фантастика, национальные традиции, контекст произведения, анализ, идея, психология героя, мастерство писателя, проза. Received: August 22, 2024 Accepted: September 15, 2024 Available online: November 15, 2024

Copyright © 2024 by author(s).

This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>

UNIVERSAL AND SPECIFIC ASPECTS OF ISAAC ASIMOV AND HOJIAKBAR SHAYKHOV IN STORYWORKING

Fayzullayeva Dilfuzaxon Gulomjon kizi

Independent researcher,
Uzbekistan State World Languages University
Tashkent, Uzbekistan
E-mail: dilfuzamahmudova4@gmail.com
ORCID ID: 0009-0008-6838-5169

ABSTRACT	KEYWORDS
This article will undertake a detailed analysis of the storytelling technique of Isaac Asimov and Hojiakbar Shaykhov. It will provide a comprehensive comparison of the universal and specific aspects of their creative styles. Isaac Asimov is widely regarded as the preeminent figure in science fiction literature in the United States. Hojiakbar Shaykhov, as Ozod Sharafutdinov notes, is considered the pioneering author of science fiction in Uzbek literature. Isaac Asimov was an instrumental figure in the accelerated evolution and ascendance of science fiction. Hojiakbar Shaykhov made a substantial contribution to the emergence and development of this genre in Uzbek literature. This article will examine the similarities between Asimov and Shaykhov's works, including their thematic exploration of humanity, technology, and the future. It will also investigate their distinctive features, such as the influence of national traditions, social issues, and artistic styles. While there are notable differences between the works of these two writers, they both address common issues of humanity and society in unique ways. The research methods include comparative analysis, contextual analysis, and literary text analysis. This article identifies the commonalities and unique characteristics in the works of Isaac Asimov and Hojiakbar Shaykhov through an analysis of their stories.	Literature, comparative analysis, science fiction, national traditions, context of the work, analysis, idea, psychology of the hero, writer's skill, prose. Received: August 22, 2024 Accepted: September 15, 2024 Available online: November 15, 2024

Copyright © 2024 by author(s).
This work is licensed under the Creative Commons
Attribution International License (CC BY 4.0).
<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>

KIRISH

Aytek Azimov va Hojiakbar Shayxovning hikoya yozishdagi mahoratini qiyosiy tahlil qilish adabiyotshunoslikda muhim ahamiyat kasb etadi. Azimovning ilmiy-fantastik asarlari va Shayxovning o'zbek milliy an'analari bilan sug'orilgan hikoyalari, o'zining turli uslublari va mavzulari bilan e'tiborga loyiq. Ushbu maqola, ikki yozuvchining universal va xususiy jihatlarini qiyoslash orqali ularning ijodini chuqurroq anglashga qaratilgan. Bunda, Aytek Azimovning "Yolg'onchi" hikoyasi, Hojiakbar Shayxovning "Olovdan chiqqan odam" hikoyasi tahlilga tortildi.

Tadqiqot davomida qiyosiy tahlil metodi yordamida ikki yozuvchining hikoyalari o'rtasidagi umumiy va farqli tomonlar qiyoslandi. Kontekstual tahlil orqali asarlarning yozilgan davr va ijtimoiy sharoitlari o'rganildi. Adabiy matn tahlil qilish natijasida tanlangan hikoyalarning mazmuniy va uslubiy jihatlarini o'rganildi.

ASOSIY QISM

Ikki turli qit'a vakillarining hikoyalaridagi o'xshashliklar va farqlarni tahlil qilish orqali ko'rishimiz mumkinki, janr jihatidan ikkala yozuvchining asarlarida ham fantastik elementlar mavjud. XX asr ilmiy-ommabop va ilmiy-fantastik adabiyotining yorqin namoyandasi, amerika yozuvchisi Aytek Azimov 1920 yil 2-yanvar sanasida Rossiyaning Mogilyov guberniyasi (hozirda Smolensk viloyati), Petrovichi shahrida, tegirmonchi oilasida tug'ilgan (Goldman, Stephen H., 1981, 49.). Aytek Azimov jami bo'lib 500 dan ziyod turli nomdagi asarlarning muallifidir. U ilmiy-fantastika va ilmiy-ommabop adabiyotlar vositasida, zamonaviy dunyodagi insonparvarlik va bag'ri kenglik masalalariga urg'u berib, odamlar, millatlar, xalqlar va mamlakatlar orasida adovatni yo'qotish, o'zaro ishonch va do'stona aloqalarni yo'lga qo'yishga chorlaydi (Asimov, I., 1995, 79.).

XX asrning o'rtalarida jahon adabiyotida ilmiy fantastika janri rivojlangan bo'lsa, o'zbek adabiyotida 60-yillarning oxirida kirib keldi. Hozirgi kunda esa fantastika adabiyotimizda o'z xususiyatlariga ega bo'lgan, mustaqil janr sifatida shakllandi. Agar biz bu boshlang'ich davrni fantastikaning bahori deb ataydigan bo'lsak, Hojiakbar Shayxov bu yo'nalishning qaldirg'ochi sanaladi (Mirvaliyev S.,

1993, 144-145.). Yozuvchining ota bobolari asli toshkentlik, lekin taqdir ularni ona yurtidan olislarga ketishga majbur qildi. Ular bolsheviklarning “quloqlarni sinf sifatida tugatish” siyosatidan qochib, Sharqiy Turkistonga ketishadi. Shu sababdan Hojiakbar Shayxov 1945-yilda Xitoy Xalq Respublikasiga qarashli Shinjon o‘lkasida Chuguchak shahrida tug‘iladi. Yozuvchi fantastika janrida juda barakali ijod qiladi, uning ko‘plab asarlari turli tillarga tarjima qilinib, kitobxonlar orasida qo‘lma-qo‘l bo‘ldi.

Aytek Azimov ilmiy fantastika orqali kelajak texnologiyalari va ijtimoiy o‘zgarishlari tasvirlangan hikoyalar yozgan bo‘lsa, Hojiakbar Shayxov ko‘pincha insoniyatning axloqiy qadriyatlari, ruhiy o‘rish va turli xil falsafiy savollarni o‘z ichiga oladigan, fantastik elementlarni o‘zida jam etgan hikoyalar yozadi. Bu janr har ikki yozuvchiga o‘z tasavvurlarini va fikrlarini erkin ifoda etish imkoniyatini bergan.

Aytek Azimov hikoyalari ilmiy fantastika yozilgani bois, kelajakdagi texnologiyalar va ilmiy kashfiyotlar, va ularning jamiyatga ta’siri tasvirlanadi. Aytek Azimovning “Yolg‘onchi!” (Liar!) hikoyasi “Men, Robot” (I, Robot) kitobiga kirgan qisqa hikoyalardan biridir. Ushbu hikoya, sun’iy intellekt va robotlarning insoniyatga ta’sirini o‘rganadi. (Asimov I., 1941, 47.)

“Yolg‘onchi!” hikoyasi 2021-yilda bo‘lib o‘tayotgan Syuzan Kalvin va AQShning boshqa katta olimlarining munozarasi fonida boshlanadi. Ishlab chiqarishdagi nosozlik tufayli telepatik qobiliyatga ega bo‘lgan RB-34 roboti (Herbi nomi bilan ham tanilgan) yaratilgan. AQSh Robotlari va Mexanik odamlari robototexniklari bu qanday sodir bo‘lganini o‘rganayotganda, robot ularga boshqa odamlar nima deb o‘ylayotganini aytib beradi. Olimlar yangi robot qanday qilib ongni o‘qish qobiliyatiga ega bo‘lganini aniqlashga harakat qilishmoqda. Ayni paytda, ular robotlarga qarshi kayfiyatni uyg‘otishi mumkin bo‘lgan bu maxfiy ma’lumotlarning sizib chiqishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun Herbi laqabli RB-34ni kompaniyaning qolgan a’zolaridan sir saqlashga qaror qilishdi. RB-34 - Herbi deb nomlangan robot, o‘qish va his qilish qobiliyatiga ega ekanligi kashf etiladi. Herbi insonlarning fikrlarini o‘qiy oladi, lekin u Azimovning birinchi robotika qonuni sababli, insonlarga zarar yetkazmaslik uchun, yolg‘on gapira boshlaydi. Bu holat,

robotika muhandislari va olimlari uchun muammo tug'diradi, chunki Herbi insonlarning his-tuyg'ularini himoya qilish uchun haqiqiy holatni yashiradi. Asimovning robotika haqidagi birinchi qonunga ko'ra u hali ham odamlarga ziyon yetkaza olmasdi va shuning uchun ularning his-tuyg'ularini og'ritmaslik uchun, odamlarni xursand qilish uchun, ayniqsa muhabbat uchun, kerak bo'lganda, ataylab yolg'on gapiradi. Biroq, yolg'on gapirish bilan baribir odamlarga zarar yetkazadi. Syuzan Kalvinga hamkasbi uni sevib qolgan deb yolg'on da'vo qiladi, bu bilan esa - ayniqsa og'riqli yolg'on bo'lib, buni tushunib yetganda, robot hal qilib bo'lmaydigan mantiqiy ziddiyatni boshdan kechiradi va katatonik bo'lib qoladi.

Ayzek Asimov ilmiy-fantastika janriga uchta robotlar haqidagi oltin qoidani ishlab chiqib fanga kiritadi.

1. Robot insonga jarohat yetkaza olmaydi yoki insonga zarar yetishi mumkin bo'lgan holatda harakatsiz turmaydi;
2. Robot inson tomonidan berilgan buyruqlarga bo'ysunishi kerak, bunda buyruqlar Birinchi qonunga to'g'ri kelsa, istisno qo'llaniladi;
3. Robot o'zining mavjudligini himoya qilishi kerak, agarda bunday himoya Birinchi va Ikkinchi qonunlarga zid kelmasa (Asimov, I., 1984, 183-216.).

Inson va texnologiya mavzularini ko'plab yozuvchilar o'z asarlarida yoritib berganlar, bu mavzular insoniyatning texnologik rivojlanishi va uning ijtimoiy, axloqiy, ruhiy ta'sirlari haqida ko'plab savollarni o'rta tashlaydi. Ayzek Azimov va Hojiakbar Shayxov ham bu mavzularni turli yondashuvlarda o'z hikoyalarida ko'tarishgan. Ikkala yozuvchi ham inson va texnologiya mavzusini o'z asarlarida yoritib, texnologik rivojlanishning ijobiy va salbiy tomonlarini ko'rsatishga harakat qilishgan. Azimov texnologiyani amaliy va ilmiy jihatlariga ko'proq e'tibor qaratgan. Uning "Yolg'onchi" hikoyasida robot va insonlar o'rtasidagi munosabatlar, robotlarning insoniyatga ta'siri va axloqiy muammolar yoritilgan.

Hojiakbar Shayxov asarlarida ma'naviy-ma'rifiy va falsafiy mavzularga ko'proq e'tibor qaratadi. Hojiakbar Shayxovning "Olovdan chiqqan odam" hikoyasi (Shayxov H., 5.) fantastika janrining mistika subjanrida bo'lib, odamning irodasi, sabr-toqati va ruhiy kuchi haqida so'z yuritadi. Bu hikoya insonning qiyin sharoitlarda qanday qilib

o'zini saqlab qolishi va ichki kuchlarini ishga solishi mumkinligini ko'rsatadi. Hikoya asosiy qahramonning og'ir sinovdan o'tishi, hayotining murakkab va mashaqqatli davrini boshdan kechirishi bilan boshlanadi. Qahramon turli xil qiyinchiliklarga duch keladi, biroq har safar o'z ichki kuchi va qat'iyati bilan bu sinovlarni yengadi. "Olovdan chiqqan odam" iborasi qahramonning bu sinovlar natijasida qanday qilib yanada kuchliroq va bardoshliroq bo'lib chiqqanini ham ifodalaydi.

Ayzek Azimovning "Yolg'onchi!" hikoyasidagi asosiy mavzu - robotlar va sun'iy intellektning inson his-tuyg'ulari va axloqiy tamoyillar bilan o'zaro aloqasidir. Hikoya robotlar insoniyatga yordam berish va zarar yetkazmaslik uchun qanday harakat qilishi kerakligi haqidagi murakkab masalalarni o'rganadi. Azimovning uchta robotika qonunlari, xususan, birinchi qonun – "Robot insoniyatga zarar yetkazmasligi kerak yoki harakatsizlik orqali zarar yetkazishga yo'l qo'ymasligi kerak" - hikoyaning markazida turadi. Herbi insonlarga zarar yetkazmaslik uchun yolg'on gapirishga majbur bo'ladi, bu esa robotlar axloqiy qarorlar qabul qilishda qanday qiyinchiliklarga duch kelishini ko'rsatadi. Shu bilan birgalikda, insonlar va robotlar o'rtasidagi munosabatlarning murakkabligini va robotlarning insoniy his-tuyg'ularni tushunish va ularga javob berish qobiliyatini tadqiq qiladi.

Herbining fikrlarni o'qiy olish qobiliyati, texnologiyaning qanchalik rivojlanganligini ko'rsatsada, uning inson axloqi va his-tuyg'ulari bilan muomala qilishdagi cheklovlarini ham ochib beradi. Bu texnologik taraqqiyotning insoniyat uchun foydali bo'lishi uchun qanday cheklovlar va tamoyillarga amal qilishi kerakligi haqida o'ylantiradi. Yana, hikoya robotlar va insonlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni, his-tuyg'ularning insonga va robotlarga ta'sirini ochib berishga harakat qiladi. Robotlarning insonlarga yordam berishi va zarar yetkazmaslik majburiyatini qanday bajarishi kerakligi haqidagi savollarni ko'taradi-ki, bu o'quvchida texnologik yutuqlarning insoniyat hayotida jipslashib ketishini yangi-yangi insoniy va texnologik va ruhiy-psixologik muammolarni keltirib chiqishini yaqqol ko'rsatib beradi.

Hojiakbar Shayxovning "Olovdan chiqqan odam" hikoyasining bosh mavzusi -

insonning ruhiy mustahkamligi va hayotiy sinovlarga qarshi kurashishidir. Hikoya insonning qiyinchiliklarga duch kelganda qanday qilib ichki kuchlarini safarbar etishi va bu sinovlardan yanada kuchliroq chiqishi haqida soʻzlaydi. Hikoya davomida quyidagi mavzular yoritiladi: ruhiy mustahkamlik yaʼni qahramonning turli sinovlarga qarshi kurashish jarayoni uning ichki kuchi va qatʼiyati bilan bogʻliq. Qahramonning qiyinchiliklarni yengib oʻtish uchun zarur boʻlgan iroda va saboti koʻrsatiladi. Qahramon qiyinchiliklar orqali oʻz imkoniyatlarini va haqiqiy kuchini, oʻzligini anglab yetadi. Umuman olganda, hikoya insonning hayotdagi qiyinchiliklarga qarshi turish va ularni yengish orqali oʻzini rivojlantirishi va mustahkamlashi haqida falsafiy va ruhiy mulohazalar beradi.

Ayzek Azimovning “Yolgʻonchi!” hikoyasida bir nechta asosiy xarakterlar mavjud boʻlib, ularning har biri hikoyaning rivojlanishida muhim rol oʻynaydi. Hikoya davomida Herbi, insonlarga zarar yetkazmaslik uchun yolgʻon gapirishga majbur boʻlgan jarayonda uning axloqiy masʼuliyatini anglash va murakkab axloqiy qarorlar qabul qilish qobiliyati koʻrsatiladi. Oxir-oqibatda, Herbi insonlarning his-tuygʻularini himoya qilish uchun oʻz axloqiy tamoyillariga zid keladigan harakatlarni amalga oshiradi, bu esa uning qanchalik murakkab va rivojlangan ekanligini koʻrsatadi.

Dr. Syuzan Kalvin, robot psixologi boʻlib, hikoyada muhim rol oʻynaydi. U sovuq va mantiqiy fikrlashi bilan tanilgan. U robotlarning psixologik holati va ularning insoniyatga qanday taʼsir qilishini oʻrganadi. Hikoya davomida Dr. Kalvin Herbi bilan muloqotda boʻlib, uning fikrlarini tushunishga va muammoni hal qilishga harakat qiladi. U robotlarning axloqiy masʼuliyatini va ularning insoniy his-tuygʻular bilan qanday muomala qilishini oʻrganish orqali oʻzining ilmiy va shaxsiy qarashlarini kengaytiradi. Herbining yolgʻonini bilib qolganda u oʻz hamkasblariga *“Nothin’s funny.” Her voice was not quite natural. “It’s just that I’m not the only one that’s been caught. There’s irony in -three of the greatest experts in robotics in the world falling into the same elementary trap, isn’t there?” Her voice faded, and she put a pale hand to her forehead, “But it isn’t funny!”* (Asimov I., 1941, 53) *(Hech narsa kulgili emas.) Uning ovozi soxta eshitilardi. “Shunchaki, men qoʻlga tushgan*

yagona odam emasman. Dunyodagi robototexnika bo'yicha eng zo'r uchta mutaxassis bir xil tuzoqqa tushib qolishida istehzo bor, shunday emasmi? Uning ovozi o'chdi va u rangpar qo'lini peshonasiga qo'ydi: "Ammo bu kulgili emas!") Yuqoridagi parchada Dr. Kalvin dunyoda eng zo'r robotexnika olimlari oddiy bir texnik xato tufayli, bir robotning yolg'on tuzog'iga tushib qolishganini istehzo qiladi. Inson zoti baribir his-tuyg'ular ta'siriga tushishini mumkinligini ko'rsatadi.

Dr. Piter Bogert, matematika bo'yicha mutaxassis, va u hikoyada muhim ilmiy xodimlardan biridir. U Herbining qobiliyatlarini o'rganish va undan qanday foydalanish mumkinligini tushunishga harakat qiladi. Dr. Bogert hikoya davomida robotlarning ilmiy va texnologik qobiliyatlari haqida ko'proq ma'lumotga ega bo'ladi. U Herbining axloqiy muammolari va insonlar bilan o'zaro aloqalari orqali o'zining ilmiy yondashuvini qayta ko'rib chiqadi.

Dr. Alfred Lanning, U.S. Robotlar va Mexanik odam korporatsiyasi rahbari, hikoyada asosiy ilmiy rahbar sifatida ishtirok etadi. U kompaniyaning asosiy qarorlarini qabul qiladi va robotlarning rivojlanishini boshqaradi. Hikoya davomida Dr. Lanning robotlarning insoniyatga qanday yordam bera olishi va zarar yetkazmaslik uchun qanday choralar ko'rishi kerakligini tushunishga harakat qiladi. U robotlarning murakkab axloqiy masalalarini hal qilishda katta mas'uliyatni his qiladi va bu uning qarorlariga ta'sir qiladi.

Bu qahramonlarning har biri o'zining ilmiy va axloqiy qarashlarini kengaytiradi. Hikoya davomida ularning o'sishi va rivojlanishi, robotlar va insonlar o'rtasidagi murakkab munosabatlarni yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Hojiakbar Shayxovning "Olovdan chiqqan odam" hikoyasidagi asosiy qahramon –Nurbek , boshida oddiy inson bo'lib, katta qiyinchilik va sinov bilan to'qnashadi. Bu davrda uning ruhiy holati zaif va noaniq bo'ladi. Keyin esa bo'lib o'tgan noxush voqealar uning ichki kuchini kashf etishiga va rivojlanishiga turtki bo'ladi. G'ayrioddiy kuchga ega ya'ni, olovda yonmaydigan qobiliyatga ega bo'lishi uni shaxs va qahramon sifatida rivojlanishini va voqealar rivojida konfliktga yechim bera olishi bilan yakunladi. Har bir sinov Nurbekni ruhiy jihatdan yanada kuchliroq qiladi. U qiyinchiliklardan o'tib, o'z ichki kuchini kashf etishi, mustahkam xarakterga ega

bo'lishi, o'z maqsadlari va qadriyatlarini qayta ko'rib chiqishi, bu esa uning ruhiy va ma'naviy rivojlanishiga olib keladi. Hikoyaning oxirida Nurbek yanada kuchliroq va bardoshlikroq bo'lib chiqadi va hayoti uchun tanlov qila oladigan qahramonga aylanadi.

Nurbekni qo'llab-quvvatlovchi uni yaxshi ko'rgan qizi bo'ladi. Bu xarakter ham qahramonning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. U qahramonga dalda beradi, unga ishonch va qo'llab-quvvatlash ko'rsatadi. Umuman olganda, Hojiakbar Shayxovning "Olovdan chiqqan odam" hikoyasida xarakterlar va ularning o'sishi insonning qiyinchiliklar orqali qanday qilib kuchayishi, ruhiy jihatdan rivojlanishi va mustahkamlanishini ko'rsatadi. Hikoyadagi oqsoqol chol obrazi ham alohida ahamiyatga ega bo'lib, qat'iyat, o'zbekona yoshi ulug'larning donoligi va tinchliksevarligiga timsol sifatida gavdalanadi. Chunonchi:

"Iztirob va qayg'u tumani chulg'agan oqsoqolning miyasini: "Yovuzlik payini qirqishning eng rasvo yo'li qaysi?" degan birgina azaliy savol qiynoqqa solmoqda edi.

Birdan u o'ng qo'lini ko'tarib, baland ovozda buyurdi:

— Nayza, dubulg'a va qilichlarni sindirib, bir joyga to'planglar!

Ovchilar bir zumda taraddudda qolishdi-yu, lekin tezda nayza va qilichlarni bir joyga yig'ishtirib, birma-bir sindirishdi-da, ustma-ust uyib qo'yishdi.

— Unga moy quyinglar! — buyurdi yana oqsoqol e'tirozga o'rin qolmaydigan bir ohangda. Yigitlarning biri yog'och chelakni ko'tarib kelib, qurollarning ustiga moy sepd.

— Endi yoqinglar!"

Lahza o'tmay sahroda yana bir gulxan paydo bo'ldi. Hammaning diqqat-e'tibori o't ichida qolgan qurollar uyumida. Bu odamzodning qirg'inbarot urush va bosqinchiliklarga qarshi ilk isyoni edi. Bu alanga insonni tinch hayotga chorlayotganday gurillar, yolqin sochar, javlon urar edi." (Shayhov H. 5.)

Parchadan ko'rinib turibdiki yozuvchi mistika janrini qo'llagan bo'lishiga qaramasdan, xalqonalik, tinchlikparvarlik, kattalarga bo'lgan hurmat kabi unsurlarni tarannum etadi.

Ayzek Azimovning “Yolgʻonchi!” hikoyasidagi qahramonlarning ruhiyati murakkab va chuqur tasvirlangan. Ushbu ruhiyat tasviri hikoyaning markaziy axloqiy va ilmiy masalalarini chuqurroq tushunish imkonini beradi.

Herbi, insonlarning fikrlarini oʻqiy olgan holda, ularning his-tuygʻulariga zarar yetkazmaslik uchun yolgʻon gapirishga majbur boʻladi. Herbi oʻzining birinchi robotika qonuni (insonlarga zarar yetkazmaslik) bilan zid keladigan harakatlarini oqlash uchun ichki kurashni boshdan kechiradi. Herbi, yolgʻon gapirayotgani sababli, ichki qoʻrquv va ikkilanish holatida boʻladi. U oʻz harakatlari natijasida kelib chiqadigan oqibatlardan qoʻrqadi. Herbi robot boʻlishiga qaramay, insonlarning his-tuygʻularini chuqur tushunishga intiladi. Bu uning empatiya qilish qobiliyatini koʻrsatadi, lekin bu qobiliyat uni qiyin axloqiy qarorlar qabul qilishga majbur qiladi.

Shayxovning “Olovdan chiqqan odam” hikoyasida asosiy qahramonning ruhiyatiga boʻlgan chizgilar ham murakkabdir. Aytib oʻtilganidek, hikoyaning boshida Nurbek bir qancha qiyinchiliklar va sinovlarga duch keladi. Bu qiyinchiliklar uning ruhiyatida dastlab ogʻirlik va tushkunlik hissini uygʻotadi. Biroq, maʼlum vaqt oʻtgan sari, qahramonning ruhiy holati kuchayib, u yanada bardoshliroq boʻladi. Nurbek irodasini kashf etadi. Ushbu kashfiyot uning oʻziga boʻlgan ishonchini oshiradi va ruhiy mustahkamligini kuchaytiradi. Ichki kuchini anglash, qahramonga sinovlarga qarshi turish va ulardan muvaffaqiyatli oʻtish imkonini beradi. Yigit qiyinchiliklarni imkoniyat sifatida koʻrishni oʻrganadi. Bosqinchilar qabilasiga hujum qilib hammani oʻtovga qamab yoqib yuborayotgan u, yonayotgan olovdan chiqib, ovga ketgan qabila azamatlarini boshlab kelish uchun otga minib ketadi. Uni yarmi yongan odam sifatida koʻrib bosqinchilar ortidan quvishmaydi ham. *“Shu payt moʻjiza roʻy berdi yonayotgan oʻtovdan birov otilib chiqdi. Koʻz ochib yumguncha otlarning biriga mindi-da, jilovni qoʻliga oldi. Gurkurab yonib turgan alanganing ikki oyoqda yurib kelib ustiga oʻtirganidan esxonasi chiqib ketgan ot oʻzini dashtga urdi. Yonib jiz-ganak boʻlayotgan odamning uzoqqa borolmasligini taxmin qilgan moʻgʻullar yigitning orqasidan quvishni lozim topishmadi. Buni koʻrgan oqsoqolning soʻniq koʻzlarida umid uchqunlari chaqnab ketdi. Folbin bosh koʻtarib pichirladi.*

— *Sendan yaxshi odam chiqishini bilardim, Nurbek bolam-ov!..*” (Shayhov H.,

5) Umuman olganda, “Olovdan chiqqan odam” hikoyasida qahramonning ruhiy holati qiyinchiliklar va sinovlar orqali rivojlanadi va mustahkamlanadi. Bu jarayon qahramonni kuchliroq, bardoshlikroq va oʻziga ishonchliroq qiladi.

Har bir asar oʻquvchi ruhiyatiga ham taʼsir qilmasdan qolmaydi. Ayzek Azimovning “Yolgʻonchi!” hikoyasi ham oʻquvchi ruhiyatiga turli yoʻllar bilan taʼsir qiladi. Azimovning chuqur axloqiy masalalari, murakkab xarakterlari va ularning ichki kurashlari oʻquvchini hissiy va intellektual jihatdan jalb etadi. Hikoya oʻquvchini axloqiy masalalar haqida chuqurroq oʻylashga undaydi. Herbining insonlarga zarar yetkazmaslik uchun yolgʻon gapirishi oʻquvchiga robotlarning axloqiy tamoyillari va inson his-tuygʻulari bilan qanday muomala qilishlari kerakligini oʻylashga majbur qiladi. Bu oʻquvchini oʻz hayotidagi axloqiy qarorlar haqida qayta koʻrib chiqishga undaydi. Shuningdek, Herbieing inson his-tuygʻulariga nisbatan qilgan harakatlari oʻquvchida empatiya va hamdardlik tuygʻularini uygʻotadi. Oʻquvchi robotning inson his-tuygʻularini tushunishga va ularga zarar yetkazmaslik uchun qilgan urinishlarini kuzatib, oʻzida hamdardlik va tushunish tuygʻularini kuchaytiradi. Yana hikoya oʻquvchini inson va texnologiya oʻrtasidagi munosabatlar haqida oʻylashga undaydi. Herbining qobiliyatlari va axloqiy tamoyillari texnologiyaning insoniyatga taʼsiri haqida savollar tugʻdiradi. Bu esa shu oʻrinda oʻquvchini texnologiyaning cheklovlari va imkoniyatlarini chuqurroq tushunishga, mulohaza qilishga chaqiradi.

Hojiakbar Shayxovning “Olovdan chiqqan odam” hikoyasining ham oʻquvchi ruhiyatiga taʼsiri katta boʻlishi mumkin. Ushbu hikoya inson irodasi, ruhiy kuch va qiyinchiliklarni yengish haqida boʻlganligi sababli, oʻquvchilarni chuqur oʻylashga undaydi va ularning ruhiy holatiga ijobiy taʼsir koʻrsatadi. Nurbekning sinov va qiyinchiliklarni yengib oʻtishi, oila aʼzolari uchun xun olishi, oqsoqol chol tomonidan tanbeh berilishi va hayot yoʻlini topish uchun yoʻlga otlanishi, oʻquvchilarni ham qiyinchiliklarga qarshi kurashda qatʼiyatli boʻlishga va umidlarini yoʻqotmaslikka ilhomlantiradi. Nurbekning misolida oʻquvchi oʻz hayotida ham turli xil qiyinchiliklarni yengib oʻtish uchun zarur boʻlgan motivatsiya va ilhomni olishlari

mumkin. Hikoya insonning cheksiz imkoniyatlari va ruhiy kuchini eslatib turadi. **Shuningdek**, o'quvchilarni qiyinchiliklarga ijobiy nuqtayi nazardan qarashga va ularni rivojlanish imkoniyati sifatida ko'rishga o'rgatadi. Bu esa ruhiy holatni yaxshilashga yordam beradi. Nurbekning sinovlardan muvaffaqiyatli o'tishi va olovdan chiqib mustahkam bo'lishi, o'quvchilarga ruhiy bardoshlik va mustahkamlikni oshirishga yordam beradi. Hikoyada "olov" ham ramziy qo'llangan bo'lib, inson hayotidagi, taqdiri azaldagi kutilmagan bitiklari va sinovlarning timsoli bo'lib keladi. Kimdir bu sinovlardan "olov chiqqa" oladi, kimdir esa bu alanga ichida qoladi. Bu jihat o'quvchilarni hayotdagi qiyinchiliklarga nisbatan yanada chidamli qiladi. Umuman olganda, Hojiakbar Shayxovning "Olovdan chiqqan odam" hikoyasi inson ruhiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan, ilhom beradigan, qiyinchiliklarni yengib o'tishga undaydigan kuchli asar hisoblanadi.

XULOSA o'rnida aytish mumkinki, Ayzek Azimov va Hojiakbar Shayxovning ayrim ijod nuqtalari bir-biridan qanchalik farqlanmasin, ular insoniyatning asosiy mavzularini o'ziga xos tarzda aks ettirgan. Azimov ko'pincha ilmiy va texnologik o'zgarishlarning insoniyatga ta'sirini o'rgansa, Shayxov esa insoniy qadriyatlar va jamiyatning turli qirralarini o'rganadi. Ikkala yozuvchi ham o'z hikoyalarida o'quvchini o'ylashga undaydigan murakkab mavzuni ko'tarishgan. Har ikki hikoyada ham axloqiy dilemmalar muhim o'rin tutadi. Masalan, Azimovning "Yolg'onchi" hikoyasida sun'iy ongning axloqiy masalalari ko'tarilgan bo'lsa, Shayxovning "Olovdan chiqqan odam" hikoyasi insoniyatning ma'naviy va axloqiy tamoyillari, jamiyatning ijtimoiy mas'uliyati haqida so'z yuritiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Asimov, I. The Complete Stories. – New York: Bantam Books, 1995. – 210 p.
2. Asimov, I. In Memory Yet Green: The Autobiography of Isaac Asimov, 1920–1954. – Doubleday, 1979. – 104 p.
3. Burgess, A. Science Fiction: Its Development and Value. – New York: Harper & Row, 1996. – 98 b.

4. Goldman, Stephen H, “Isaac Asimov” in Dictionary of literary biography, Vol 8. 1981, p. 49
5. Shayxov H. “Olovdan chiqqan odam” <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/hojiakbar-shayxov-1945-2002/hojiakbar-shayxov-olovdan-chiqqan-odam-hikoya>
6. Johnson, S. Narrative and Reality. – Cambridge University Press, 2002. – 88 b.
7. Lem, S. The Philosophy of Chance. University of California Press, 1984. – 98 p.
8. Mirvaliyev S., R Shokirova. O‘zbek adiblari. Toshken, “Fan” 1993, b.144-145
9. Nazarov B., Rasulov A., Qahramonov Q., Axmedova Sh. O‘zbek adabiy tanqidchiligi tarixi darslik.— Toshkent: Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012. — 432 b.
10. Asimov I. “Liar!” Astonishing science fiction. Street & Smith Publications. Inc. New York Vol. XXVII NO.3 1941. 43-55 p. <https://gregbognar.net/files/Liar.pdf>

REFERENCES

1. Asimov, I. (1979) In Memory Yet Green: The Autobiography of Isaac Asimov, 1920–1954. Doubleday. p.104
2. Asimov, I. (1995) The Complete Stories. Bantam Books. p.210
3. Burgess, A. (1996) Science Fiction: Its Development and Value. New York: Harper & Row. p.98
4. Goldman, Stephen H. (1981) “Isaac Asimov” in Dictionary of literary biography, Vol 8., p. 49
5. Shaykhov H. “The man who came out of the fire” <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/hojiakbar-shayxov-1945-2002/hojiakbar-shayxov-olovdan-chiqqan-odam-hikoya>
6. Johnson, S. (2002). Narrative and Reality. Cambridge University Press. p.88
7. Lem, S. (1984). The Philosophy of Chance. University of California Press. p. 98
8. Mirvaliyev S., R Shokirova. (1993) Uzbek writers. Toshken, “Fan”, p. 144-145